тўлдириб, шарбат усулида бериш ўсимликни ўсиш-ривожланишини янада юқори бўлишига олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Белоусов М.А. Удобрение сахарной свеклы, Минеральное питание и углеводный обмен, – М.: Сельхозгиз, – 1937 г.
2. Белоусов М.А. Агротехника сахарной свеклы в Узбекистане, – Ташкент: Госиздат УзССР, –1945 г.
3. Кодрашов С.К. Сахарная свекла в Средней Азии. – Ташкент: Гос.издат УзССР, 1943 г.
4. Рождественкий И.Г. Изучение принципов подкормки сахарной свеклы. Осн.выводы ВНИИС за 1936, – Киев: Полтава: – 1937.
5. Сулаймонов И.Ж., Эргашев Д.Т. Усвоение азота сахарной свеклой в зави-симости от формы и нормы минеральных удобрений //Сахарная свекла, – 2022. – №3, – С. – 23-26.

UDK:631.19

KOLLEKSIYA KO‘CHATZORIDA MOSH NAV-NAMUNALARINING HOSILDORLIK KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

Xakimov Abdumurod Esirgap o‘g‘li,
kichik ilmiy xodim,
Ziyayev Zafarjon Mashrapovich,
Qishloq xo‘jalik fanlari falsafa doktori,
Elmurodov Abbos Berdimurod o‘g‘li,
kichik ilmiy xodim,
Pirnazarov Jo‘rabek Rejebovich,
Qishloq xo‘jalik fanlari nomzodi

Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti

Annotatsiya. Dunyo bo‘yicha aholi soni o‘sib borayotgan va oziq ovqatga bo‘lgan talab kuchaygan bir paytda dukkakli ekinlarni hosildorlik ko‘rsatgichini oshirgan holda ushbu muammolarga yechim topish mumkin. Mosh dukkakli ekinlar orasida ekiladigan maydoni jihatidan dunyoda soyadan keyin ikkinchi o‘rinni egallaydi. Respublikamizda takroriy ekin sifatida 18-25 ming gektardan ortiq maydonlarda yetishtiriladi.

Kalit so‘zlar: mosh, nav, tizma, gullash, dukkak, dukkak soni, hosildorlik.

Аннотация. В условиях роста численности населения земного шара и увеличения потребности в продуктах питания, найти решение этих проблем можно за счет повышения урожайности зернобобовых культур. Маш занимает второе место в мире по площади посева среди бобовых культур после сои. В нашей республике в качестве повторной культуры выращивают на площади более 18-25 тыс.га.

Ключевые слова: маш, сорт, линия, цветение, стручки, количество стручков, продуктивность.

Annotation. All over the world we can observe the growth of the population, which will be accompanied by an increase in the demand for food products. In turn, the solution to these problems can be found by increasing the productivity of legume crops. Mungbean occupies the second place in the world in terms of sowing area among legumes after soybeans. In our country, more than 18-25 thousand hectares are cultivated as a recurring crop.

Key words: mung bean, variety, line, flowering, legume, number of legume, productivity.

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash hozirgi davrda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammoga aylangan, chunki aholining o‘sishi bilan baravar tarzda oziq-ovqat mahsulotlariga talab ham oshib bormoqda. Bu muammoni hal qilishda muhim e’tibor o‘simlik oqsili bilan ta’minlanishiga ahamiyat berilmoqda. O‘simlik oqsili bilan ta’minlash esa har xil usullarda hal qilinmoqda. Shu usullardan biri – seroqsilli ekinlarni ko‘proq ekish, bu ekinlarning orasida oqsilining miqdori va sifati bilan mosh ekini alohida ajralib turadi. Mosh donining tarkibida 24-28% oqsil, 2-4% moy va 46-50% kraxmal 20% B guruh vitaminlari, lizin, arginin mavjud. Uni 5-10% bug‘doy uniga qo‘shiladi.

Mosh har tomonlama xalqimiz ehtiyojini qondiradigan ekinligi va ilmiy tomondan to‘liq o‘rganilmaganligini hisobga olib, uni yetishtirish agrotexnikasini takomillashtirib borish hamda natijalarni ishlab chiqarishga joriy qilish dolzarb hisoblanadi. Tajriba O‘zR FA Genetika va o‘simliklar eksprimental biologiyasi instituti «Do‘rmon» tajriba stansiyasining tipik tusli bo‘z tuproqlarida olib borildi. Moshning mahalliy va Butunjahon Sabzavotchilik markazi (Tayvan) dan keltirilgan nav-namunalari tadqiqot obyekti, mosh nav-namunalarining o‘sish va rivojlanishi hamda hosildorlik ko‘rsatkichlari tahlillari esa tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Tadqiqot uslublari. Tajriba davomida namunalarning hosildorlik ko’rsatkichlari tahlili qishloq xo‘jalik ekinlari navlarini sinash davlat komissiyasining uslubi, statistik tahlillari esa B.A. Dospexov uslubi asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari. Olib borilgan tadqiqotimizda moshning xorijdan keltirilgan 24 ta namunalari hamda standart sifatida mahalliy Durdona navi tanlab olinib, 1 ta o‘simlikdagi dukkaklar soni, dukkaklardagi don soni, dukkak og‘irligi, shuningdek, 1000 dona don vazni hamda o‘rtacha hosildorliklari ham o‘rganildi (1 jadval).

Tajriba maydoniga ekish oldidan 60 kg/ga miqdorida ammofos berildi. Kolleksiya ko’chatzorida o‘rganilayotgan namunalar 22-iyunda 60x10 sxemada ekildi. Namunalar 29-iyulda to’liq unib chiqdi. O‘suv davri davomida bir marta

chopiq, ikki marta kultivatsiya, bir marta azotli o‘g‘it bilan (30 kg/ga) oziqlantirildi va ikki marta sug‘orish (gullash oldi va to‘liq dukkaklaganda) tadbirlari amalga oshirildi.

1-jadval

Mosh kolleksiya ko‘chatzoridagi nav namunalarining hosildorlik ko‘rsatkichlari

T/r	Namunalar	1 ta o‘simlikdagi dukkaklar, soni			1 ta dukkak og‘irligi, gr			1 ta dukkakdagi don soni			1000 don vazni	1 ga dagi hosildorlik, o‘rt. t/ga
		X ± Sx	y	V	X ± Sx	y	V	X ± Sx	y	V		
1	Tizma 1	82.40±3.06	20.28	24.61	0.96±0.02	0.13	10.19	12.20±0.27	1.81	14.86	52.9	2,375
2	Tizma 2	119.80±4.75	31.54	26.3	0.92±0.02	0.10	10.79	12.00±.19	1.25	10.39	55.9	3,966
3	Tizma 3	111.0±3.90	25.88	23.32	1.05±0.02	0.11	10.23	12.50±0.18	1.18	9.43	55.6	3,400
4	Durdona st	76.80±2.20	14.58	18.99	1.0±0.02	0.11	11.50	10.90±0.18	1.20	10.98	63.2	2,625
5	Tizma 5	111.0±11.94	79.21	71.36	1.04±0.02	0.12	11.92	11.90±0.17	1.10	9.25	49.3	3,358
6	Tizma 6	87.60±4.50	29.82	34.04	0.89±0.01	0.08	8.42	12.30±0.19	1.25	10.18	52.1	2,550
7	Tizma 8	71.20±5.16	34.23	48.08	0.89±0.02	0.10	11.27	11.20±0.16	1.03	9.22	51.9	3,775
8	Tizma 9	86.60±4.82	31.97	36.92	0.78±0.01	0.08	10.77	11.80±0.22	1.48	12.51	46.1	3,308
9	Tizma 10	59.00±2.13	14.11	23.91	0.94±0.02	0.13	14.21	12.50±0.18	1.18	9.43	53.1	2,625
10	Tizma 11	52.40±2.72	18.06	34.47	1.60±0.03	0.19	11.93	11.90±0.17	1.10	9.25	83.4	5,075
11	Tizma 12	62.60±3.41	22.65	36.17	0.90±0.01	0.08	9.26	11.50±.0.11	0.71	6.15	52.8	4,041
12	Tizma 13	98.40±3.77	25.03	25.43	0.90±0.02	0.12	13.46	11.40±0.16	1.07	9.43	53.3	5,241
13	Tizma 15	55.60±1.30	8.65	15.56	0.88±0.02	0.14	16.33	11.10±0.23	1.52	13.73	52.7	2,825
14	Tizma 16	58.20±2.93	19.43	33.39	1.19±0.03	0.20	16.78	12.10±0.21	1.37	11.32	67.2	4,233
15	Tizma 17	36.80±1.59	10.52	28.59	1.19±0.02	0.10	8.78	12.30±0.14	0.95	7.71	71.2	5,458
16	Tizma 18	34.80±.83	12.15	34.92	1.38±0.04	0.25	18.21	12.20±0.30	1.99	16.30	79.6	3,258
17	Tizma 19	50.20±0.84	5.54	11.04	0.94±0.03	0.19	20.35	11.10±0.17	1.10	9.91	61.3	3,008
18	Tizma 20	48.20±0.65	4.32	8.97	0.97±0.02	0.16	16.89	10.70±0.27	1.77	16.51	70.1	3,458
19	Tizma 21	45.60±0.88	5.86	12.84	1.02±0.02	0.15	14.52	11.00±0.27	1.76	16.03	64.1	2,466
20	Tizma 22	45.80±2.20	14.62	31.92	1.07±0.02	0.13	12.54	12.60±.22	1.43	11.35	61	3,666
21	Tizma 23	63.20±3.37	22.35	35.37	1.01±0.02	0.15	15.17	11.60±0.19	1.26	10.90	62.2	1,616
22	Tizma 24	80.80±3.75	24.84	30.75	0.80±0.02	0.13	15.88	11.90±0.29	1.91	16.07	49.5	2,541
23	Tizma 25	69.00±4.82	31.96	46.32	0.98±0.02	0.14	14.09	11.50±0.18	1.18	10.25	64.9	1,375
24	Tizma 28	49.00±2.68	17.79	36.31	1.44±0.03	0.17	11.93	11.70±.23	1.49	12.77	83	3,833
25	Tizma 30	36.20±.82	12.07	33.34	1.19±0.02	0.15	12.53	11.50±0.20	1.35	11.77	73.5	4,200

1-jadval ma’lumotlarini tahlil qilganimizda 1 ta o‘simlikdagi dukkaklar soni bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar Tizma 2 (119.8±4.75sm, populyatsion tebranish darajasi 31.54), Tizma 3 (111.0±3.90 sm, populyatsion tebranish darajasi 25.88), Tizma 5 (111.0±11.94 sm, populyatsion tebranish darajasi 79.21) va Tizma 13 (98.40±3.77 sm, populyatsion tebranish darajasi 25.03) namunalarda kuzatildi.

1 dona dukkak og‘irligi: Tizma 11 (1.60±0.03 gr, populyatsion tebranish darajasi 0.19), Tizma 18 (1.38±0.04 gr, populyatsion tebranish darajasi 0.25), Tizma 28 (1.44±0.03 gr, populyatsion tebranish darajasi 0.17) namunalarda yuqori ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida 1 ta dukkakdagi don son ham o‘rganilib, yuqori ko‘rsatkichlar Tizma 22 (12.60±.22 dona, populyatsion tebranish darajasi 1.43),

Tizma 3 va Tizma 10 (12.50±0.18 dona, populyatsion tebranish darajasi 1.18) namunalarida qayd etildi.

Yuqorida tahlil qilingan Tizmalardagi natijalar standart nav ko‘rsatkichlaridan ustun ekanligini ko‘rsatdi.

Qishloq xo‘jalik ekinlarini hosildorligini belgilaydigan muhim ko‘rsatkichlaridan biri 1000 dona donining og‘irligi hisoblanadi. Shunga muvofiq holda mosh namunalarining 1000 dona don og‘irligi ham o‘rganildi. Tizma 11 (83,4 gr), Tizma 28 (83 gr), Tizma 18 (79,6 gr) namunalarida bu ko‘rsatkich standart nav va boshqa Tizmalardan ham yuqori ekanligi aniqlandi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida delyankalardan olingan hosildorlikdan kelib chiqib, o‘rtacha bir gektar hosili aniqlandi. Bunda eng yuqori hosildorlikni Tizma 17 (5,458 t/ga), Tizma 13 (5,241 t/ga) hamda Tizma 11 (5,075) namunalari ko‘rsatdi. Bu ko‘rsatkichlar standart nav hosildorligidan yuqori bo’ldi. Shuningdek, Tizma 25 (1,375) va Tizma 23 (1,616) namunalarida olingan hosil standart navdan past ko‘rsatkich qayd etdi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, Tizma 11, Tizma 13, Tizma 17 hamda Tizma 30 namunalari hosildorlik ko‘rsatkichlari standart nav va o‘rganilayotgan boshqa namunalardan yuqori bo‘ldi. Hozirda bu namunalar donining sifat ko‘rsatkichlari ustida ham ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Kelgusi tadqiqotlarimiz davomida bu namunalarni seleksiya ishlariga keng jalb qilib, respublikamiz sharoitiga mos bo‘lgan yangi hosildor navlarni yaratish ustida tajribalar olib boramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xalikov B.M., Negmatova S.T. «Mosh». Navro‘z nashriyoti, –Toshkent: – 2020. – 7 b.
2. Artukmetov Z. A. Qishloq xo' jaligi asoslari «O‘zbeklston faylasuflar milliy jamiyati» nashriyoti toshkent – 2012. – 87 b.
3. Ostonaqulov T.E., Xalilov N.X., Lukov .M.Q., Sanayev S.T. «Takroriy ekinlar farovonlik manbai» – Samarqand: –2017. – 36 b.
4. Negmatova S.T., Jumayev Sh.B., Isayeva Sh.S. Takroriy ekilgan moshning unib chiqishiga ekish muddat va me’yorlarining ta’siri. «Boshoqli va dukkakli don ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi, yer va suv resurslarini tejovchi yetishtirish agrotexnologiyalarini takomillashtirish istiqbollari» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. Qarshi: –2020. – 341 b.
5. Agro-Olam.uz